

DOI: 10.5281/zenodo.15695417

Link: <https://zenodo.org/records/15695417>

AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti

Amaliy matematika va informatika kafedrasi katta o'qituvchisi N.Ne'matov

nematullanematov@yahoo.com

+998934497800

Annotatsiya: Maqola hududlarni rivojlantirishda aholi va uning zichligi qay darajada muhimligini yoritishga bag'ishlagan. Hozirgi kunda rivojlangan va jadal rivojlanib borayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy taraqqiyotning ta'minlanishida mamlakat aholisi va zichligining o'rni ochib berilgan. Bu borada ilg'or davlatlar erishgan natijalar, tajribalar va ulardan mamlakatimiz taraqqiyotida foydalanish mumkin bo'lgan jihatlari ko'rib chiqilgan. Dunyoning rivojlangan davlatlari bo'lgan AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya shuningdek shiddat bilan rivojlanib borayotgan Singapur, Xitoy kabi mamlakatlarda hududlarni rivojlantirish borasidagi ilg'or tajribalari hamda ularning muhim jihatlari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, hudud rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi aholi hamda u bilan bog'liq barcha ko'rsatkichlarni aniq va ravshan aks ettiruvchi aholini ro'yxatga olish ishlari va uning ijobiy tomonlari haqida ham so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Aholi, aholi zichligi, aholi zich joylashgan hududlar, hududlarni rivojlantirish, iqtisodiy o'sish.

Kirish. Odamlar tarixiy rivojlanishning barcha davrlarida yaxshi yashash uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo'lgan hududlarga intiladilar. Toza havo, ichimlik suvi, unumdor turoq va boshqa qator resurslarga ega hududlar ana shunday hududlar turkumidandir. Bugungi kunda ming yillardan buyon, millionlab odamlar yashayotgan, hozirgi kunlarda ham gullab yashnayotgan shahar manzilgohlari ana shunday resurslarga ega bo'lgan hududlardir. Bir so'z bilan aytgandan yashash uchun qulay hududlarni o'zlari uchun manzilgoh qilgan odamlar asta sekin bu joylarni hozirgi kundagi rivojlangan shaharlarga aylantirdilar.

Yuqorida keltirib o'tilgan yashash uchun qulay sharoit ko'p sonli aholini bir hududda yig'ilishiga olib keladi. Buning natijasida esa shu hududda aholi zichligi ortadi. Fanda aholi zichligi va o'lchovi, uning davlat va jamiyatga ko'rsatuvchi ijobiy va salbiy ta'sirini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratiladi. Quyida biz aholi zichligining hududdagi iqtisodiy o'sishga ko'satuvchi ijobiy ta'siri hamda shaharlarni, umuman hududlarni rivojlantirish haqida so'z yuritamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Hududlar va ayniqsa shaharlar rivojlanishi qator xorijiy olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. T.Miller, M.Fujita, P.Krugman, A.Venables, J-F.Thisse, M.Enrite kabilar o'z ilmiy izlanishlarida mazkur masalaga alohida e'tibor bilan yondoshib tadqiq etganlar. MDH olimlaridan esa A.G.Granberg, Yu.A.Gadjiyev, O.G.Dmitriyeva, N.V.Zubarevich, A.Ye.Varshavskiy, S.A.Grebenkina, A.S.Slavyanov, S.S.Feshina, G.N.Gadjiyev, S.V.Yemelyanov, Ye.L.Plisetskiy, I.L.Cherkasov kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan. O'zbekistonda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va boshqarish, shahar va qishloq aholi punktlarini rivojlantirish masalalari S.S.Zokirov, T.M.Axmedov,

A.M.Sodiqov, A.M.Qodirov, Sh.X.Nazarov, B.Ro'zmetov, F.T.Egamberdiyev kabi iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Quyida ushbu tadqiqotning asosiy tushunchalari bo'lgan aholi zichligi hamda hududlarni rivojlantirish masalalarini kengroq yoritishga xarakat qilamiz.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida berilgan ta'rifga ko'ra, aholi – yer yuzida yoki uning muayyan hududi, qit'a, mamlakat, tuman, shaharida istiqomat qiluvchi odam (inson)lar majmui. Aholi zichligi – muayyan hududda aholining joylashuv darajasi. Mamlakat yoki biror hudud (viloyat, tuman) aholi sonini shu joy maydoniga (odatda 1 km² ga) taqsimlash bilan aniqlanadi¹.

Shuningdek, "Iqtisodiy atamalarining izohli lug'ati"da ham aholi zichligi – muayyan hududda aholining joylashuv darajasini aks ettirib, mamlakat aholisi sonini shu joy maydoniga nisbati bilan o'lchanadi, deb ta'riflanadi².

Vikipediya elektron lug'atida aholi zichligi - bir km² ga to'g'ri keluvchi aholi soni, deb ta'riflanadi. Shuningdek, aholi zichligini hisoblashda aholi yashamaydigan hududlar va yirik ichki suv havzalari chiqarib tashlanishi mumkin. Aholining umumiy zichligidan tashqari qishloq va shahar aholisi uchun alohida zichlik ko'rsatkichlari qo'llaniladi, deb qo'shib qo'ilgan³.

Dictionary.com saytida keltirilgan ma'lumotlarda, aholi zichligi aholining qanchalik gavjum yoki keng tarqalganlik ko'rsatkichi bo'lib, belgilangan hudud birligida yashovchi odamlar yoki ma'lum hayvon turlari, o'simliklar sonini anglatadi⁴.

Yuqoridagi manbalardan anglanadiki, aholi zichligi deyarli bir xil tarzda aniqlanar ekan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli va qiyosiy tahlil usullariga asoslangan. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning hududlarni taraqqiy ettirishdagi ma'lumotlari, ilmiy tadqiqotlar va rasmiy hujjatlar o'rganilgan.

Natija va muhokama. Xorijiy mamlakatlarning aholi zich joylashgan hududlarni rivojlantirish bo'yicha tajribasini tadqiq etib, O'zbekiston uchun moslashtirilishi va foydalanilishi mumkin bo'lgan bir qator qiziqarli misollarni ko'rish mumkin. Bu borada dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatori ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasiga ham to'xtalishni lozim topdik.

AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasida ishlab chiqaruvchi kuchlarni asosan yirik shaharlar atrofidagi kichik shaharlarda joylashtirishni rag'batlantirish, yirik markazlarda esa yangi sanoat korxonalari qurilishini cheklash bo'yicha qonunlar qabul qilingan⁵. Bu mamlakatlarda qoloq hududlarni rivojlantirish bo'yicha 20-30 yilga mo'ljallagan uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshirilgan. Dasturlardan ko'zlangan maqsad, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini barpo etish, sanoat korxonalarini joylashtirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, rag'batlantirish kabi chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

¹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi A harfi. Elektron manba, www.ziyouz.com kutubxonasi. 871-874 b.

² I.Norqulov, O.Mahmudov. Iqtisodiyot atamalarining izohli lug'ati [Matn]: Izohli lug'at. –T: "Shaffof" nashriyoti, 2022. –424 b.

³ https://ru.wikipedia.org/wiki/Плотность_naseleniya.

⁴ <https://www.dictionary.com/browse/population-density>

⁵ Зокиров С.С. Ўзбекистонда урбанизация жараёналарини тартибга солиш тизимини такомиллаштириш [Матн]: монография. –Тошкент. Тафаккур нашриёти, 2020. –368 б.

Dasturlarning mualliflari fikricha, qoloq hududlarda joylashgan kichik va o'rta shaharlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlash ularga yondosh bo'lgan hududlarni iqtisodiy o'sishning faol markazlariga aylantiradi.

Qozog'iston Respublikasida aholi soni O'zbekistonga qaraganda 1,8 barobar kam bo'lishi bilan birga, aholi zichligi ham 10 barobardan ziyodroqqa kam. Shunday bo'lsada, respublikada 3 ta millioner shahar mavjud. 2023 yilning oxiriga kelib aholi soni 20 mlnlik marrani zabt etdi. Milliy statistika byurosi ma'lumotlariga ko'ra 2024 yil 1 iyul holatiga mamlakat aholisi 20159707 kishi bo'lib, ulardan 62,4 foizi shaharlarda istiqomat qiladi. O'zbekistondan farqli ravishda Qozog'istonda aholini ro'yxatga olish ishlari mustaqillik yillarida 3 marotaba, 1999, 2009 va 2021 yillarda o'tkazilgan. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, aholini ro'yxatga olish mamlakat aholisi haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lishni ta'minlaydi.

Bizning fikrimizcha, Markaziy Osiyoning aholi soni va zichligi jixatidan yetakchisi bo'lgan O'zbekiston uchun hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan bo'lgan kambag'allikni qisqartirishda ham aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari ayni muddao bo'ladi. Chunki, aholini ro'yxatga olishda har bir fuqaro bilan individual muloqot natijasida uning oilaviy ahvoli, yashash sharoiti, turmush tarzi, uy-joyining holati kabilar to'g'risida to'liq ma'lumotlar bazasi yaratiladi va real holat oydinlashadi. Bu ma'lumotlar esa kerakli qarorlarni qabul qilishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Afsuski, O'zbekistonda keyingi yillarda rejalashtirilgan aholini ro'yxatga olish ishlari hamon kechiktirilmoqda. Respublika miqyosida o'tkaziladigan bu tadbir davlat byudjetidan katta mablag' va xarajatlar evaziga amalga oshiriladi. Ma'lumotlarga qaraganda O'zbekistonda har yili kambag'allikni qisqartirishga 14 trillion so'm yo'naltirilayotgani ma'lum. Kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlar ijrosi bo'yicha 3 bosqichda – mahalla va tuman, viloyat hamda respublika darajasida monitoring tashkil qilinishi, bu borada jamoatchilik nazorati kuchaytirilishi aytilgan⁶.

Yaponiyaning yirik urbanizatsiyalashgan hududlarini rivojlantirish uchun uzoq muddatli prognozlar ishlab chiqilgan. Jumladan, 20 yillik istiqbolli rejaga muvofiq Tokio va uning atrofidagi hududlar, kichik va o'rta shaharlarni rivojlantirish ushbu loyihada o'z aksini topgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, shahar va uning atrofidagi shaharchalarni rivojlantirish yuqori malakali kadrlar mehnati, katta hajmdagi qurilish va bunyodkorlik ishlarini talab etganligi sababli asosan, davlat hukumati boshchiligi va moliyaviy ko'magida amalga oshiriladi.

Yaponiya rivojlangan shaharlari va unda istiqomat qiluvchi aholisining zichligiga ko'ra yetakchi davlatlardan biridir. Bu mamlakat tajribasining o'ziga xos xususiyati - rejalashtirishga indikativ (Indikativ rejalashtirish - bu davlat organlarining xo'jalik yurituvchi subyektlarni davlat iqtisodiy siyosatining maqsadlari va vositalari hamda iqtisodiy rivojlanishning mumkin bo'lgan yo'nalishlari to'g'risida xabardor qilishga qaratilgan iqtisodiy rejalarni tayyorlash bo'yicha faoliyati) yondashuv, hududlarning yetarlicha yuqori mustaqilligi, bu rivojlanish dasturlarini mustaqil ravishda shakllantirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Hududining kichikligi va tabiiy

⁶ <https://kun.uz/kr/news/2024/08/19/ozbekistonda-uch-yilda-kambagallik-darajasi-11-foizdan-7-foizga-qisqartiriladi>

resurslar bilan deyarli ta'minlanmaganligi tufayli mintaqaviy siyosatning asosiy chora-tadbirlari aholi va tabiat manfaatlarini uyg'unlashtirishga, mavjud resurslardan oqilona foydalanishga, "sifatli iqtisodiy o'sishni" ta'minlashga qaratilgan, ya'ni:

- real farovonlikni saqlash va oshirish;
- tabiiy va inson kapitalini saqlash va oshirish;
- axborot va intellektual mahsulotlar ulushini oshirish;
- inson kapitalining muhim rolini tan olish (bilim va tajriba);
- aholi turmush darajasi va salomatligi ustuvorligi.

Yaponiyaning davlat siyosati ishlab chiqarish kuchlarini oqilona taqsimlashga, mintaqalararo tafovutlarni kamaytirishga, aholi uchun munosib turmush darajasi va qulay ekologik vaziyatni ta'minlashga qaratilgan hududlarni rivojlantirishning davlat rejalarini ishlab chiqishga asoslanadi. Hududiy siyosat vositalarini qo'llagan holda, davlat hokimiyati organlari turli faoliyat turlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirishga hissa qo'shadi, hududning "imidjini" yaxshilashga yordam beradi, bu esa o'z navbatida aholining ishbilarmonlik faolligini oshishida aks etadi. Buning natijasida ilgari qoloq bo'lgan subyektlarda aholining farovonlik darajasi oshmoqda. Hududiy rejalashtirishni to'laqonli qonunchilik bilan tartibga solish, strategik muhim tarkibiy qism sifatida infratuzilmani uzluksiz rivojlantirishga e'tibor berish ham o'ziga xos xususiyatlardandir⁷.

Yaponiya qishloq joylari va shahar atrofi hududlarini faol qo'llab-quvvatlash namunasidir. Davlatning aholi zichligi yuqori hududlarni rivojlantirish siyosati qishloq joylarda ish o'rinlari ochadigan va ushbu hududlardagi infratuzilma loyihalarini faol qo'llab-quvvatlayotgan kompaniyalar uchun qo'shimcha imtiyozlar beradi. Bu yirik shaharlarga yaqin to'liq infratuzilmaga, o'qitilgan ishchi kuchiga va megapolislarga qaraganda arzonroq sharoitda biznes ochish imkoniyatiga ega bo'lish imkonini beradi.

Xitoy hududlari o'zini-o'zi ta'minlash va Yaponiya kabi nisbatan o'zaro mustaqilligi bilan ham ajralib turadi. Yuqori zichlikka ega bo'lgan hududlar muammolarini hal qilish bilan hukumat tarkibiga kiruvchi maxsus bo'linmalar shug'ullanadi. Xitoy hududi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jihatidan bir-biridan farq qiluvchi sharqiy, markaziy va g'arbiy zonalarga bo'lingan. Mintaqaviy tafovutlarni kamaytirish dasturlari o'zining maqsadliligi va chora-tadbirlarining aniqligi, ularni amalga oshirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bilan alohida ahamiyatga molik. Shunday bo'lsada, taraqqiyot va yuqori daromadga ega bo'lish istagi aholi soni va zichligini ma'lum hududlarda keskin ortishiga olib keladi. Dastlab, barcha resurslar iqtisodiy o'sishning ma'lum bir dvigatelini shakllantirish imkonini beradigan mamlakat sharqida yuqori rivojlanish darajasiga erishishga qaratilgan edi. Ikkinchi bosqichda ustuvorlik markaziy zonaga o'tdi. Uchinchi bosqichda esa rivojlanish Xitoyning g'arbiy qismiga ko'chdi. Shu o'rinda, Xitoy iqtisodiyotining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan erkin iqtisodiy zonalarining yaratilishini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim⁸.

⁷ Варшавский А.Е. Пространственное неравенство и центростремительное движение населения России: угрозы экономической, научно-технологической и национальной безопасности // Научно-практический журнал "Концепции", Изд-во ООО «Арт-слово», №1 (37), 2018, с.3-27.

⁸ Гребенкина С.А. Формирование механизмов и инструментария устойчивого развития дотационного региона в системе его экономической безопасности. Дис.на соиск.канд.экон.наук., -Москва: 2021, -220 с.

Xitoy so'nggi yillarda aholi zich yashovchi shahar hududlarini faol rivojlantirayotgan va ko'plab yangi xizmatlarni joriy etayotgan mamlakat timsolidir. Bunday texnologik megapolislarning yorqin namunasi Shenchjen bo'lib, u qisqa vaqt ichida dunyoning eng yirik shaharlaridan biriga aylandi. Xitoy bu kabi shaharlarni rivojlantirish uchun innovatsion loyihalarni ishlab chiqmoqda va sarmoya jalb qilmoqda. E'tiborga molik loyihalar qatorida Nanshan shahrida joylashgan dunyodagi eng yirik biokimyoviy klaster qurilishini alohida ta'kidlash joiz.

Bundan tashqari Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida uning yangi urbanizatsiya modeli ustuvor hisoblanadi va mamlakatning iqtisodiy o'sishi uchun zarur shart-sharoit yaratish imkonini beradi. Uzoq yillar davomida Xitoyda migratsiya uchun to'siqlar mavjud bo'lgan. Shaharlardagi uy-joylarda ro'yxatda turmaydigan aholi davlat xizmatlarida ishlolmas edilar va bu ularning xayot faoliyatiga to'siq bo'lar edi. So'nggi 35-40 yil ichida Xitoy shaharlariga 260 milliondan ortiq kishining ko'chib kelishi hududlardagi qashshoqlik tufayli sobiq fermerlarning shaharlardan yuqori haq to'lanadigan ish qidirishlari bilan bog'liq.

Yuqorida keltirilgan yangi urbanizatsiya modelining ustuvor tomonlaridan biri, Xitoy shaharlariga qishloqlardan uzoq yillar davomida yiliga o'rtacha 6,5 mln kishidan ko'chirib kelingan aholini yirik shaharlarga joylashib, tayinli daromadga ega bo'lgan ish biland band qilish masalalariga davlat tomonidan e'tiborning qaratilganligidir.

Xitoyning aholisi zich shaharlari taraqqiyotida hukumat tomonidan ishlab chiqiladigan besh yillik rejalar muhim o'rin tutadi. Jumladan, o'ninchi besh yillik rejada (2001-2005) belgilangan maqsadlardan biri qishloqlardagi kam daromadli ishchilarni shaharlarga ko'chirish orqali shahar bandlik darajasini oshirish bo'lgan. 2005 yilda bu maqsadning bajarilishi natijasida Guanchjou (1 km²ga 11600 kishi) va Shanxayda (1 km²ga 13400 kishi) aholi zichligi oshirildi. So'ngra esa o'n birinchi (2006-2010) va o'n ikkinchi besh yillik rejalarda (2011-2015) dastlab oltita, keyin yigirmata regional markaziy shaharlarni hamda kichik shaharlarni ham rivojlantirishga e'tibor qaratildi⁹.

Guanchjou va Shanxay kabi gigant shaharlarda aholi va uning zichligi o'sishda davom etmoqda. Shunday bo'lsada, bu jarayon biroz sekinroq amalga oshmoqda, chunki, hukumat megapolislar atrofida kichik shaharlar klasterlarini barpo etishga ham jiddiy e'tibor qaratgan.

2013 yil mart oyidan boshlab yangi Bosh vazir Li Ketsyan hokimiyatga kelishi bilan urbanizatsiya ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. U modernizatsiya bilan bog'liq bo'lib, qishloqlardan 250 million kishini shaharlarga ko'chirishni ko'zda tutadi. Rejaga muvofiq, 2030 yilga borib, 980 million kishi yoki Xitoyning 70% dan ortiq aholisi shahar manzilgohlarida istiqomat qilishlari lozim. Buning uchun har oyda 1,8 million kishi shaharlarga ko'chib o'tadi, bu esa Gamburg yoki Vena kabi yirik shaharlar aholisi soniga teng.

Xitoyda aholi zich shaharlarni rivojlantirishning noan'anaviy usullaridan ham keng foydalaniladi. Muhimi, loyihaning foydaliligi ilmiy jihatdan isbotlanganligidir. Ana shulardan biri, xitoylik arxitektor Kongjian Yu va uning Turenscape firmasi o'n

⁹ Miller, T. 2012, "China's Urban Billion: The Story Behind the Biggest Migration in Human History (Asian Arguments)" 1st ed. edn, Zed Books, London, UK.

yildan ortiq vaqt davomida “shimgich shaharlar”ni loyihalashtirib keladi. Bunday shaharlar yomg‘ir suvini shimib olib, ushlab turishga mo‘ljallangan¹⁰. Yuning g‘oyasi shundan iboratki, tuprog‘i g‘ovak hududlar yaratilishi kerak. Unda mahalliy o‘simliklar va daraxtlar parvarish qilinadi. Yog‘ingarchilik bo‘lganda, yer va o‘simliklar suvni shimib oladi va yaqin atrofdagi hududlarni suv bosishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Turenscape butun dunyo bo‘ylab 250 dan ortiq shaharda 10000 dan ortiq shunday loyihalarni rejalashtirib, ishlab chiqdi. Ulardan 1000 tadan ko‘prog‘i yakunlandi. Bunday shaharlarning aksariyati Xitoyda joylashgan bo‘lib, mamlakat 2015 yilda ushbu g‘oyani milliy shaharsozlik siyosatiga kiritgan. O‘shandan beri 70 dan ortiq shahar “shimgich shahar” tashabbusini amalga oshirib keladi (ularning hammasi ham Turenscape‘ga tegishli emas, chunki ba‘zi mahalliy hokimiyat boshqa kompaniyalardan foydalangan).

Yu hukumat va qurilish kompaniyalari tomonidan afzal ko‘riladigan eski infratuzilmadan voz kechib, shaharlarni kichikroq muqobillarga o‘tkazishni xohlaydi. Ular arzonroqqa tushishi ham mumkin: masalan, Uhanda shimgich shaharni qurish dasturiga 4 milliard yuan (550 million dollar) dan ko‘proq sarflandi. Britaniyaning Lids universiteti tahliliy sharhiga ko‘ra, bu beton uslubidan arzonroq.

Muvaffaqiyatli shimgich shahar qurish uchun uning joylashuvi, topografiyasi, yog‘ingarchilik rejimlari hamda u yerda gullaydigan o‘simlik turlari kabi omillarni hisobga olish kerak. Bu universal emas, individual yondashuv deganidir.

Uhanda 350 dan ortiq shimish loyihalari yo‘lga qo‘yilgan — ularga shahar bog‘lari va yashil hududlar kiradi. Bunday hududlar yomg‘ir suvini yutib, sun‘iy ko‘llarga yo‘naltiradi. Shimish infratuzilmasi yaratilganidan buyon mahalliy havo sifati va biologik xilma-xillik yaxshilangani aniqlandi. Yanszi daryosi sohilidagi shahar bog‘ida ham harorat pasaygani qayd etildi, bu yerda 45 ming daraxt va boshqa o‘simliklar yiliga 724 tonna uglerod yutishi taxmin qilinadi.

Toshkent shahri uchun ham suv toshqinlari muammosi begona emas. Yog‘ingarchilik miqdori salgina ortishi bilan asosan shaharning ma‘lum hududlari va yo‘llarning avtomobil qatnov qismlarida kichik ko‘llar hosil bo‘ladi. Bu piyodalar va avtomobillar qatnovida muammolar keltirib chiqaradi. Xitoyda amaliy sinovdan o‘tgan “shimgich shahar” kabi loyihalarni Toshkentda ham joriy etish muhim deb hisoblaymiz. Buning orqasidan bir vaqtning o‘zida shaharni ko‘kalamzorlashtirishda yomg‘ir suvlaridan foydalanish, piyodalar va avtomobillar xarakatiga halal berayotgan yog‘ingarchilik ta‘sirida hosil bo‘ladigan suv ko‘lmaklaridan xalos bo‘lish, shahar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yashil makonlarni sezilarli darajada kengaytirish va buning evaziga havo tarkibidagi karbonad angidridning qisqarishiga erishish mumkin.

Singapur aholi zich joylashgan shahar qanday qilib qisqa davr ichida qambag‘allikdan iqtisodiy qudratli davlatga aylanish mumkinligining yorqin misolidir. Bu shahar-mamlakatda aholi zichligi juda yuqori, lekin ayni paytda u toza va yashash uchun deyarli xavfsiz. 63 ta kichik orollardan tashkil topgan shahar–davlat Singapur,

¹⁰ <https://kun.uz/kr/news/2024/08/19/shimgich-shaharlar-xitoy-suv-toshqinlariga-qarshi-qanday-kurashyapti>.

yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantiradi va mintaqa uchun moliyaviy xizmatlar markazi hisoblanadi. Davlat innovatsion usullardan foydalangan holda shaharga investitsiyalarni faol jalb qilmoqda.

Singapur yo'llarida tirbandliklarning yuzaga kelishini oldini olish maqsadida 1990 yilda COE (Certificate of Entitlement) avtomobilga egalik qilish sertifikat mexanizmi joriy qilingan. Unga ko'ra Singapurda haydovchilar shaxsiy avtomobilga ega bo'lishni xohlasa, sertifikat uchun 106 ming AQSH dollarigacha to'lashi kerak bo'ladi. Bu sertifikat 10 yil amal qilish muddatiga ega bo'lib, avtomobilga egalik qilish sertifikatining narxi bo'yicha dunyodagi yetakchi mamlakat hisoblanadi. 2020 yilga nisbatan katta hajmli avtomobillar uchun sertifikat narxi 4 baravarga oshib, 106376 AQSH dollariga yetdi.

Masalan, Toyota Camry Hybrid avtomobilining standart komplektatsiyasiga ega bo'lish uchun 183 ming AQSH dollari to'lash kerak. Buning ichiga COE sertifikat, avtomobilni ro'yxatdan o'tkazish va soliqlar kiradi. Solishtirish uchun, Singapurda davlat tomonidan subsidiyalanadigan kichik bir kvartira 91300 AQSH dollari atrofida turadi. Kishi boshiga to'g'ri keluvchi YAIM esa 90000 AQSH dollari atrofida. Singapurda davlat COE sertifikat mexanizmi orqali aholini dunyoda eng yaxshilardan biri sifatida tan olib kelinadigan jamoat transportidan foydalanishga undaydi, tirbandliklarning oldini olishga harakat qiladi va avtomobillar sonini nazorat qilib boradi. 2022 yil oxiridagi ma'lumotlarga ko'ra mamlakatda 5,5 million aholi istiqomat qiladi, avtomobillar soni esa 1 milliondan kamroqni tashkil qilgan. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, mamlakat avtomobil yo'llari ravon, yo'l belgi va jihozlari bilan to'la ta'minlangan, jahon standarti talablariga javob beradi. Yuqori sifatdagi ta'lim tizimi va yuksak darajada havfsiz mamlakat hisoblangan Singapur tirbandlik muammosidan hozircha aziyat chekmayapti¹¹.

Toshkentda ham tirbandlik muammosi kundan kunga dolzarblasha bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda shaharda 5 mln nafar aholi bo'lib, uning soni yiliga 100 mingtaga, hozirda harakatlanayotgan 760 ming avtotransport esa 76 mingtadan ziyodga ko'payib boryapti. Aholining kunlik harakatlanishga bo'lgan ehtiyoji 9 mln ni tashkil etib, undan 3 millioni piyoda harakatlanish, 6 millioni esa transportda harakatlanishga to'g'ri keladi. Kunlik transportda harakatlanishning 25 foizi, ya'ni 1,5 millioni avtobus, metro va mikroavtobuslarda, qolgan 75 foizi, 4,5 millioni shaharda kun davomida harakatlanadigan (760 mingta doimiy ro'yxatdagi va 240 mingta kunlik kelib ketuvchi) avtotransportda amalga oshiriladi. Ushbu raqamlarni e'tiborga olib Singapur tajribasidagi yutuqli tomonlarni, jumladan, atrof-muhit musaffoligini saqlashga qaratilgan qonunchilik, rivojlangan jamoat transporti kabilardan mamlakatimiz shaharlarini rivojlantirishda foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi.

Shuningdek, O'zbekistonning aholi zich shaharlarini rivojlantirish uchun suburbanizatsiya jarayonlarini jadallashishiga ko'maklashish zarur deb hisoblaymiz. Ya'ni, birinchidan, aholi o'ta zich joylashgan hududlardan aholining ma'lum bir qismini ko'chirib o'tkazish mumkin. Bu bilan yangi hududlar o'zlashtiriladi, yangi

¹¹ <https://kun.uz/news/2023/10/17/70-mingdan-106-ming-dollarigacha-singapurda-shaxsiy-avtomobilga-egalik-qilish-nega-qimmat>

shahar aglomeratsiyalari vujudga keladi. Yangi korxonalar ochiladi, yangi ish o‘rinlari tashkil etiladi. Umumiy qilib aytganda shaharning to‘laqonli faoliyat yuritishi uchun barcha sharoit yaratiladi va bu jarayon albatta, hukumat nazorati va bevosita boshchiligida bo‘lishi uning natijadorligini ta‘minlaydi.

Osiyoning aholisi zich mamlakatlaridan yana biri Janubiy Koreyaning hududlarni rivojlantirish bo‘yicha tajribasi yuksak e‘tiborga molik. Bu mamlakatda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari xususiy sektor zimmasidadir. Tabiatni muhofaza qilish va bog‘dorchilikka ixtisoslashgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tanlov asosida shaharlarning landshaft qismidagi ishlarni amalga oshirish huquqini qo‘lga kiritib, ushbu ishlarni mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirgan holda amalga oshiradilar¹².

Janubiy Korea tajribasiga ko‘ra mamlakatimizda ham hukumat obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini xususiy sektorga to‘liq o‘tkazishi yoki davlat xususiy sherikligi asosida tashkil etishi hamda uning ustidan o‘zining qat‘iy va shaffof nazoratini yuritishi yoki Yaponiyadagi kabi ish tutib, davlat tomonidan juda katta miqdorda moliyaviy ko‘mak oluvchi korxonalarni xususiylashtirish, albatta ushbu sohalarda mulkchilik munosabatlarining o‘zgarishi, rivojlanishiga asos yaratgan bo‘lur edi.

Yevropaning aholisi eng zich bo‘lgan mamlakatlaridan biri Niderlandiya hududlarni rivojlantirish buyicha ko‘p yillik va samarali tajribaga ega. Bu yerda mamlakatning fizik-geografik sharoitining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, tabiiy muhitdan foydalanish, landshaftlarni rivojlantirish, ayniqsa, dengiz qirg‘oqlarini muhofaza qilish va rivojlantirish sharoitida har doim kompleks nazorat o‘rnatilgan. Niderlandiyada hududlarni rivojlantirish davlat organlarining siyosiy qarorlarida va jamoatchilik ongida doimiy e‘tirof va e‘tiborda bo‘ladi. Bu mamlakat “Aqlli shaharlar” konsepsiyasini faol rivojlantirayotgan davlat. “Aqlli shaharlar” tushunchasi resurslarni samarali boshqarish va aholiga sifatli xizmatlar ko‘rsatish uchun eng yangi texnologiyalardan foydalanadigan shaharlarni tavsiflaydi. Niderlandiya ta‘lim, sog‘liqni saqlash va energetika sohalarida innovatsion loyihalarni ishlab chiqmoqda, shuningdek, shahar transportida avtomobil o‘rniga velosipeddan foydalanishni faol ilgari surmoqda. Buning sababi birinchidan, ishlash, yashash va dam olish obyektlarining joylashuvidagi zichligi bo‘lsa, ikkinchidan atrof-muhitga zarar yetkazmaslik va sog‘lom turmush tarzi namunasidir.

Andijon shahrida mamlakat avtomobil sanoatining eng yirik korxonalari joylashgan, shuningdek, boshqa turdagi yuzlab korxona va tashkilotlar faoliyat yuritadi. Poytahtda “avtomobilsiz kun” loyihasi amalga oshirilayotgani kabi Andijonda ham ishxona-uy masofasini yaqinligini inobatga olib, ishga velosiped va elektromopedlarda qatnovni ommalashtirish havo tozaligini yaxshilash va tirbandliklarni oldini olish borasida samarali yechim bo‘lur edi.

AQShda hududlarni rivojlantirishning eng yorqin misoli Tennessi daryosi havzasining rivojlanishi bo‘lib, o‘sha paytda hududning rivojlanishi yangi energiyani ko‘p talab qiladigan sanoatning shakllanishi va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish

¹² <https://podrobno.uz/cat/obchestvo/minyust-v-uzbekistane-est-sereznye/>

korxonalarining yaratilishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga turtki bo'ldi. Umuman olganda, Amerika siyosatining o'ziga xos xususiyati markazlashmagan boshqaruv va tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishda davlat organlarining ishtiroki ulushining pastligidir. Shu bilan birga, xo'jalik masalalarini hal etishda mahalliy davlat hokimiyati institutlari muhim o'rin tutadi. Malakali kadrlar va geografik joylashuv ham katta ahamiyatga ega. Tajriba shuni ko'rsatadiki, hududida sanoat yoki innovatsion klasterlar shakllangan eng muvaffaqiyatli hududlar - sanoat korxonalari birlashmalari, ilmiy markazlar va bir-birining raqobatdosh ustunliklarini to'ldiradigan va kuchaytiradigan boshqa o'zaro bog'langan tashkilotlar rivojlanadi¹³.

Ilg'or texnologiyalarni joriy etish va ommalashtirish raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy o'sishga xizmat qilmoqda. Klasterlar AQShda innovatsion faoliyatning eng samarali shakllaridan biri sifatida keng ommalashdi. Shu munosabat bilan milliy iqtisodiyotning ustuvor vazifalari qatoriga hududiy innovatsion klasterlarni shakllantirish va mustahkamlash kiradi. Mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish AQSH hududlarini boshqarish uchun asosdir. Dasturlar besh yillik muddatga ishlab chiqiladi, jumladan:

- hududlarda faoliyat yuritish uchun mavjud muhitni tahlil qilish;
- o'tgan davrdagi faoliyatning bajarilishini baholash;
- iqtisodiy kon'yuktura (vaziyat)ning rivojlanishi bashoratlari;
- mintaqaviy rivojlanishning uzoq muddatli istiqbolda tasdiqlangan maqsadlari va ushbu maqsadlarni rivojlanishning belgilangan ustuvor yo'nalishlari kontekstida hal qilish;
- maqsadli ko'rsatkichlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslar hajmini baholash;
- amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun maxsus hududiy komissiyalar tomonidan mablag'larni taqsimlash.

Hududda davlat federal-mintaqaviy komissiyalari faoliyat yuritadi, ular o'ziga xos muvofiqlashtiruvchi va dasturiy maqsadli organ bo'lib, ularning vazifalari asosan yirik tarmoqlarga ta'sir qilmasdan prognozlar, rejalar, tadqiqotlar ishlab chiqishdan iborat¹⁴. Ushbu organning davlatlararo pozitsiyasi, shuningdek, uning tarkibiga kiruvchi federal va shtat hukumatlari unga keng ko'lamli hududlarni rivojlantirish dasturlarini tayyorlash va amalga oshirilishiga ta'sir ko'rsatish vakolatini beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, Amerika mintaqaviy siyosatining o'ziga xos xususiyati hududiy muammolarni hal qilishning maqsadlilikligi va mahalliy xususiyatidir. AQSH aholi zichligi yuqori bo'lmagan davlat hisoblansada, mintaqalarni rivojlantirishdagi besh yillik dasturlar o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Kanada davlatidagi mintaqaviy boshqaruv amaliyoti shubhasiz juda ko'pchilikda qiziqish uyg'otadi. Bu yerda asosiy e'tibor mamlakatning shimoliy qismini rivojlantirish dasturlariga beriladi. Umumiy konsepsiya shaharlarni, ya'ni mamlakat shimolida joylashgan iqtisodiy faol o'sish markazlarini yaratish va qo'llab-

¹³ Гаджиев Г.Н. Развитие регионов в западных странах // Региональная экономика: теория и практика. –2004. – № 1. –С. 69-71.

¹⁴ Емельянов С.В. США: государственная политика стабилизации инновационной конкурентоспособности американских производителей // Менеджмент в России и за рубежом. – 2002. – № 3. –С. 25-32.

quvvatlashni o'z ichiga oladi, ular uchun barcha federal byudjet transfertlarining muhim qismi ajratiladi. Hokimiyat faoliyatining o'ziga xos xususiyati mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlovchi proteksionizm siyosatidir. Ajratilgan resurslar asosan infratuzilmani rivojlantirishga, tog'-kon sanoatida faoliyat yurituvchi tashkilotlarga yordam berishga va ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga qaratilgan ko'p kapital talab qiluvchi loyihalarga yo'naltiriladi¹⁵.

Germaniya hududlarini rivojlantirishda alohida hududlarni rivojlantirish konsepsiyalarini shakllantirish va amalga oshirishni nazarda tutuvchi mahalliy dasturlarga asoslanadi. Asosiy e'tibor rivojlanishdan orqada qolgan hududlarga qaratilgan. Federal hokimiyatlar rivojlanish yo'nalishlari va shartlarini maxsus davlat yordam rejasi orqali belgilaydilar, unga ko'ra hududlar o'zlarining iqtisodiy tizimlarini takomillashtirish bo'yicha mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladilar. Hududlarni rivojlantirishni moliyaviy-iqtisodiy muvofiqlashtirish mexanizmini amalga oshirish, konstitutsiyada mustahkamlangan belgilangan soliq kvotalari orqali amalga oshiriladi. Mintaqaviy rivojlanish, asosan, tarkibiy jihatdan zaif mintaqada rag'batlantirilgan korxona (sanoat yoki kommunal infratuzilma) raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan qo'llab-quvvatlash orqali ta'minlanadi¹⁶.

Germaniya va Norvegiya mintaqaviy siyosatining asosini Buyuk Britaniya, Italiya va Fransiya hokimiyatlarining boshqaruv amaliyoti tashkil etadi. Germaniya, Italiya, Ispaniya mintaqaviy siyosatining alohida ahamiyati konstitutsiyada hududlarni rivojlantirishning asosiy maqsadlari mustahkamlangani bilan tasdiqlanadi. Mintaqaviy rivojlanish bo'yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish yevropaning aksariyat mamlakatlarida qo'llaniladi. Xususan, Fransiyada ushbu dasturlar orqali qoloq hududlarni iqtisodiy rivojlantirish siyosati amalga oshirilmoqda, AQShda esa yo'l qurilishi, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, ekologik muammolarni hal qilish kabi eng dolzarb mintaqaviy muammolarni hal qilishda foydalanilmoqda.

Yevropa davlatlarining mintaqaviy siyosati yuqoridagilarga o'xshash, rag'batlantiruvchi funksiyani kuchaytirish bilan byudjet va moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalaridan foydalanish, hududiy tashabbuslarni rivojlantirish va mintaqaviy salohiyatni faollashtirishga olib keladigan vositalar to'plamiga asoslanadi. Ta'kidlash joizki, Yevropa davlatlarida YAIM o'sishining salmoqli qismi innovatsion komponent va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot natijalariga to'g'ri keladi, bu esa iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, barqaror rivojlanishi va o'sishga erishish Yevropa Ittifoqining Taraqqiyot strategiyasi asosiy omillari sifatida qayd etilgan. Innovatsion faoliyatni rag'batlantirish asosan moliyaviy va soliq vositalari orqali amalga oshiriladi. Masalan, Finlyandiya, Shvetsiya va Germaniyada ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish uchun subsidiyalar va past foizli kreditlardan keng foydalaniladi. Portugaliya, Ispaniya va Italiyada zamonaviy texnologiyalarni joriy qiluvchi tashkilotlar uchun imtiyozli soliq rejimi qo'llaniladi.

Mintaqaviy hokimiyat organlari, mintaqaviy siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilash, hududiy rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqish, qo'llab-quvvatlash

¹⁵ Плисецкий Е.Л. Зарубежный и отечественный опыт государственной поддержки развития территорий // Региональная экономика: теория и практика. – 2014. – № 42. Том 12. – С. 32-44.

¹⁶ Плисецкий Е.Л., Черкасов И.Л. Региональная экономика: учеб. пособие, – Москва: КНОРУС, 2013. – 272 с.

choralarini amalga oshirish va ichki resurs salohiyatini oshirish, iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va boshqalar orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, boshqaruvning turli darajalarida qo'llaniladigan qonunchilik, ma'muriy, iqtisodiy va boshqalarning keng doiradagi vositalaridan foydalanish qayd etilgan. Ilg'or mamlakatlar davlat organlari faoliyatining samaradorligi optimal tashkiliy tuzilma, harakatlarni aniq muvofiqlashtirish va barcha darajadagi hokimiyat organlari o'rtasidagi uzviy hamkorlik, o'zgaruvchan sharoitlarga yuqori moslashuvchanlik, rivojlanish rejalarini tuzishda indikativ yondashuvdan foydalanish, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni faqat qonunchilik bilan tartibga solish, ustuvor dasturlarni moliyalashtirishda xususiy resurslardan foydalanishga asoslanadi¹⁷.

Qator mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, iqtisodiy o'sish investitsiyalar hisobidan ta'minlanadi, Xitoy ham shular jumlasidandir. Lekin, yil sayin investitsiyalarning o'sishni ta'minlashdagi samarasi butun mamlakat miqyosida ham, alohida shaharlar bo'yicha ham kamayib bormoqda. Global inqiroz sharoitida barqaror o'sish uchun qo'shimcha imkoniyatlar aynan urbanizatsiya tomonidan yaratilishi kerak bo'lgan ichki talabning o'sishiga turki beradi, shu asnoda eksportga bog'liqlikni kamaytiradi. Sobiq fermerlarning shaharlarga ko'chishi uy-joyga bo'lgan talabni shakllantiradi, bu esa o'z navbatida qurilish materiallari, mehnat va ko'nikmalar uchun barqaror talab manbai bo'ladi. Shu o'rinda yapon olimi M.Fujitaning shaharlarni rivojlantirish xalqasini [10], rus iqtisodchi-geografi, MDU professori N.Zubarevich ta'biri bilan aytganda bir birini keltirib chiqaruvchi yopiq xalqani keltirish o'rinli bo'ladi. Unga ko'ra hududdagi iste'molchi va ishchi kuchining ko'pligi, ya'ni aholining zichligi shu yerda ko'plab ishlab chiqaruvchi firmalarning to'planishiga olib keladi. Firmalarning ko'pligi esa mahsulot va xizmatlar turining xilma xilligini ta'minlaydi, tovarlarning ko'pligi esa iste'molchilar uchun tanlov imkoniyatini kengaytirib, bu hududga iste'molchilarni yanada ko'proq jalb qiladi.

Xorijiy tajribani tahlil qilish aholi zich joylashgan hududlarni rivojlantirish, samarali boshqaruv usullari ta'sirida hududning orqada qolishi va uning butun mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyatini kuchaytirishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash joizki, xorijiy davlatlarning mintaqaviy rivojlanishini boshqarish siyosati yangi hodisa emas. Vaqt o'tishi bilan faqat yondashuvlar va vositalar to'plami takomillashdi. Dastlab, qo'llab-quvvatlash choralari faqat ma'lum maqsad yoki foydani ko'zlab amalga oshirilardi. Barqarorlik va o'zaro bog'liqlik yo'q edi. Keyinchalik mintaqaviy siyosat yaxlit tizim shaklini oldi. Shu bilan birga, XX asrning 70-yillaridan boshlab ichki resurs salohiyatini rag'batlantirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalishlar etib belgilandi. Keyinchalik, asosiy e'tibor barqaror rivojlanishni boshqarish bo'yicha mintaqaviy siyosat vositalari to'plami kengaytirilgan muvozanatli hududiy rivojlanishni ta'minlashga qaratildi.

¹⁷ Гребенкина С.А., Славянов А.С., Фешина С.С. Зарубежный опыт формирования и мониторинга программ развития депрессивных регионов // Инновации в менеджменте. – 2019. – № 2 (20). – С. 34-39.

Shunday qilib, Kanada davlati rivojlanishdan ortda qolgan shimoliy hududlardagi yangi korxonalar egalarini daromad solig'idan butunlay ozod qiladi. AQShda shtatlararo avtomobil yo'llarini qurish xarajatlarining 90 foizi federal mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi. Xitoyda erkin iqtisodiy zonalar imtiyozli soliqqa tortish, bojxona to'lovlaridan ozod qilish va boshqa afzalliklarga ega. Germaniya va Fransiya byudjet mablag'larini donor hududlardan subsidiyalangan hududlarga qayta taqsimlash bo'yicha to'plangan tajribalari bilan ajralib turadi. Boshqalar qatorida xorijiy davlatlar imtiyozli kreditlash va tariflar, subsidiyalar berish, moliyaviy kafolatlar berish, malakali mutaxassislar tayyorlashni moliyalashtirish va hokazolardan foydalanadi. Shuningdek, ma'muriy choralar ham mashhur bo'lib, ular orasida aholi zich yashovchi shaharlarda ekologik xavfi yuqori ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishni taqiqlanishini ta'kidlash mumkin.

Xulosa. Xorijiy tajribani o'rganish bizga mahalliy subyektlarga nisbatan qo'llaniladigan, mavjud potensial va faoliyat tendensiyalariga moslashtirilgan hududlarning barqaror rivojlanishining samarali choralarini aniqlash imkonini beradi. Davlat boshqaruvining barcha darajalarida o'zaro hamkorlikning aniq tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini yaratish, muhim loyihalarni amalga oshirishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishni rag'batlantirish, ushbu maqsadlarga erishish uchun qulay bo'lgan hududiy klasterlarni yaratish va rivojlantirish masalalari shular jumlasidandir.

Shuningdek, sinergetik ta'sir deb ataladigan, bir vaqtning o'zida kompleks tartibga solish bilan mintaqaviy siyosatning asosiy yo'nalishlarini aniqlash uchun indikativ usuldan foydalanish amaliyotini kengaytirish, xususan, hududning barqaror rivojlanishini baholash uchun ko'rsatkichlar va metodologik asoslarini takomillashtirish, qonunchilik bazasini yaxshilash, aholi zich joylashgan hududlarda atmosfera havosini ifloslayotgan hamda yuqori sanitariya xavfini vujudga keltiruvchi ishlab chiqarish obyektlarini tartibga solish, qoloq hududlarda korxonalar qurilishini qo'llab-quvvatlash va shu kabi boshqa muhim tadbirlarga e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi A harfi. Elektron manba, www.ziyouz.com kutubxonasi. 871-874 b.
2. I.Norqulov, O.Mahmudov. Iqtisodiyot atamalarining izohli lug'ati [Matn]: Izohli lug'at. –T: "Shaffof" nashriyoti, 2022. -424 b.
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Плотность_naseleniya.
4. <https://www.dictionary.com/browse/population-density>
5. Зокиров С.С. Ўзбекистонда урбанизация жараёнларини тартибга солиш тизимини такомиллаштириш [Матн]: монография. –Тошкент. Тафаккур нашриёти, 2020. –368 б.
6. <https://kun.uz/kr/news/2024/08/19/ozbekistonda-uch-yilda-kambagallik-darajasi-11-foizdan-7-foizga-qisqartiriladi>
7. Варшавский А.Е. Пространственное неравенство и центростремительное движение населения России: угрозы экономической, научно-технологической и национальной безопасности // Научно-практический журнал "Концепции", Изд-во ООО «Арт-слово», №1 (37), 2018, с.3-27.

8. Гребенкина С.А. Формирование механизмов и инструментария устойчивого развития дотационного региона в системе его экономической безопасности. Дис.на соиск.канд.экон.наук., -Москва: 2021, -220 с.
9. Miller, T. 2012, "China's Urban Billion: The Story Behind the Biggest Migration in Human History (Asian Arguments)" 1st ed. edn, Zed Books, London, UK.
10. <https://kun.uz/kr/news/2024/08/19/shimgich-shaharlar-xitoy-suv-toshqinlariga-qarshi-qanday-kurashyapti>.
11. <https://kun.uz/news/2023/10/17/70-mingdan-106-ming-dollar-gacha-singapurda-shaxsiy-avtomobilga-egalik-qilish-nega-qimmat>
12. <https://podrobno.uz/cat/obchestvo/minyust-v-uzbekistane-est-sereznye/>
13. Гаджиев Г.Н. Развитие регионов в западных странах // Региональная экономика: теория и практика. –2004. – № 1. –С. 69-71.
14. Емельянов С.В. США: государственная политика стабилизации инновационной конкурентоспособности американских производителей // Менеджмент в России и за рубежом. – 2002. – № 3. –С. 25-32.
15. Плисецкий Е.Л. Зарубежный и отечественный опыт государственной поддержки развития территорий // Региональная экономика: теория и практика. – 2014. – № 42. Том 12. – С. 32-44.